

XALQARO NORDIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/29.12.2022.I.157.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
XALQARO NORDIK UNIVERSITETI

Отформатировано: слева: 2,2 см, справа: 2,3 см

UMAROV ELSHOD G'ULOM O'G'LI

**YASHIL IQTISODIYOT RIVOJLANISHINING ISHLAB CHIQRISH
RESURLARIGA TA'SIRINI BAHOLASH**

08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Отформатировано: Шрифт: Times New Roman

Отформатировано: Шрифт: Times New Roman

Отформатировано: Шрифт: 7 пт

Отформатировано: По левому краю

UO‘K: 338.45:330.15:574. 46 (575.1)

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of Doctor of philosophy (PhD)
on economical sciences**

Umarov Elshod G‘ulomovich

Yashil iqtisodiyot rivojlanishining ishlab chiqarish resurslariga ta‘sirini baholash..... 3

Отформатированная таблица

Отформатировано: не выделение цветом

Умаров Элшод Гуломович

Оценка влияния развития зеленой экономики на производственные ресурсы 27

Отформатировано: Запретить размещение знаков препинания на полях, Поз.табуляции: 16,5 см, по правому краю,Заполнитель: ...

Отформатировано: английский (США)

Umarov Elshod G‘ulomovich

Assessing the impact of green economy development on productive resources..... 55

Отформатировано: По ширине

Отформатировано: Запретить размещение знаков препинания на полях

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 59

Отформатировано: Шрифт: Times New Roman

Отформатировано: Шрифт: Times New Roman

Отформатировано: Шрифт: Times New Roman, 7 пт

XALQARO NORDIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/29.12.2022.I.157.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

XALQARO NORDIK UNIVERSITETI

UMAROV ELSHOD G'ULOMOVICH

YASHIL IQTISODIYOT RIVOJLANISHINING ISHLAB CHIQRISH
RESURLARIGA TA'SIRINI BAHOLASH

08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Отформатировано: Шрифт: Times New Roman

Отформатировано: Шрифт: Times New Roman

Отформатировано: Шрифт: 7 пт

Отформатировано: По левому краю

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan B2023.3.PHD/Iqt3191 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Xalqaro Nordik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasi (www.nordicuniversity.org) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Rajabov Nazirjon Razzakovich**
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Isakov Musoxon Yusupdjanovich
iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Yetakchi tashkilot: **Toshkent davlat agrar universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Xalqaro Nordik universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/29.12.2022.I.157.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "____" _____ kuni soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100143, Toshkent shahri, Sezbor ko'chasi, 22A uy, 2 bino I qavat. Tel.: (95) 505-44-00, Faks: (95) 505-33-00; e-mail: info@nordicuniversity.org.

Dissertatsiya ishi bilan Xalqaro Nordik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro'y xatga olingan). Manzil: 100143, Toshkent shahri, Sezbor ko'chasi, 22A uy, Tel.: (95) 505-44-00, Faks: (95) 505-33-00.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "____" _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil "____" _____ dagi № _____ raqamli reestr bayonnomasi).

A.R. Djurayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi o'rinbosari, i.f.d. (DSc)

M.K. Abdullayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, PhD., professor

B.T. Salimov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

Отформатировано: Шрифт: 11 пт

Код поля изменен

Отформатировано: Шрифт: 11 пт

Отформатировано: Шрифт: 11 пт

Код поля изменен

Отформатировано: Шрифт: 11 пт

Отформатировано: Шрифт: 11 пт, полужирный

Отформатировано: Шрифт: 11 пт

Отформатировано: Шрифт: Times New Roman

Отформатировано: Шрифт: Times New Roman

Отформатировано: Шрифт: Times New Roman, 7 пт

|

- Отформатировано: Шрифт: Times New Roman
- Отформатировано: Шрифт: Times New Roman
- Отформатировано: Шрифт: 7 пт
- Отформатировано: По левому краю



KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Отформатировано: Default, По центру, Отступ: Первая строка: 0 см

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ishlab chiqarish jarayonining yuqori o'sishi resurslar sarfining, xususan, energiya ta'minotiga bo'lgan talabning ortib borishiga, natijada xalqaro doirada jiddiy ekologik inqirozga olib keluvchi tahdidlarning vujudga kelishiga sabab bo'lmoqda. Hisob-kitoblarga ko'ra, "global issiqxona gazlari chiqindilari bo'yicha eng yirik ulush, jami chiqindilarning 30 foizi sanoat tarmoqlari, 28 foizi elektr energiyasini ishlab chiqarish, 19 foizi qishloq xo'jaligi, yer resurslaridan foydalanish va chiqindixonalar, 16 foizi transport sohasi, 7 foizi binolardan chiqayotgan issiqxona tashlanmalari hissasiga to'g'ri keladi hamda sanoat va elektr energiyasi ishlab chiqarish global (Greenhouse Gases – GHG) chiqindilarining qariyb 60 foizini tashkil etmoqda¹. Bu esa, energiya samaradorligini oshirish, toza texnologiyalarga o'tish va ekologik barqaror yechimlarni joriy etish dolzarb masala ekanligini ko'rsatmoqda.

Jahonda kuzatilayotgan tendensiya sanoat korxonalarida ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarning rivojlanish bosqichlari, ekologik-iqtisodiy mexanizm samaradorligini baholashda uslubiy yondashuvlar, sanoat korxonalarini innovatsion salohiyatini oshirishning xorij tajribasi hamda undan milliy iqtisodiyotda foydalanish imkoniyatlari, sanoat korxonalarida ilmiy-texnik, moliyaviy, kadr, axborot, moddiy-texnik holati va ularning rivojlanish tendensiyalari, sanoat korxonalarini ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini baholash usullarini takomillashtirish, sanoat korxonalarining yashil iqtisodiyot faoliyatini rivojlantirishning konseptual asoslari bu borada amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblanmoqda.

O'zbekistonda ham ekologik muammolarni bartaraf etish hamda sanoat korxonalarini barqaror rivojlantirish, ularning raqobatbardoshligini ta'minlashning muhim omili hisoblangan ishlab chiqarishning yashil iqtisodiyot salohiyatini oshirish masalalariga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Shu boisdan ham, «O'zbekiston — 2030» strategiyasida va Oliy Majlis palatalarining majlislarida belgilangan vazifalarning ijrosini o'g'ishmay tashkil etish, BMTning Iqlim o'zgarishi to'g'risida Hadli konvensiyasining² Kioto protokoli³ va Parij bitimi⁴ doirasida "mamlakatning global hamjamiyat oldida olgan majburiyatlarini bajarishda tarmoq va sohalarning uyg'un «yashil transformatsiya»sini amalga oshirish nazarda tutilgan"⁵. Shuni alohida ta'kidlash joizki, 2023-yilning o'zida atmosfera havosiga tashlanmalar 2 138,3 ming tonnani tashkil etgan bo'lsa, ulardan 1 279,9 ming tonnasi yoki 59,9 foizi avtotransport vositalari, 858,4 ming tonnasi yoki 40,1 foizi sanoat korxonalarini hissasiga to'g'ri kelgan. 2020-yildan buyon hududlarda taxminan 22 mingta yangi sanoat korxonasi ishga tushirilgan va qariyb 250 mingdan ortiq

¹ <https://rhg.com/research/global-greenhouse-gas-emissions-1990-2022-and-preliminary-2023-estimates/>.

² Hadli Konvensiyasi – iqlimning o'zgarishi to'g'risida konvensiya hisoblanadi. 1992-yil 9-may, Nyu-York. (O'zbekiston Respublikasi uchun 1994-yil 21-martdan kuchga kirdi). <https://lex.uz/acts/2598545>.

³ Kioto protokoli – iqlim o'zgarishiga qarshi kurashda muhim tarixiy hujjat bo'lib, rivojlangan mamlakatlarni issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirishga majbur qilgan birinchi xalqaro shartnomadir. https://unfccc.int/kyoto_protocol?utm_source.

⁴ Parij bitimi – 2015-yil 12-dekabrda BMT Iqlim o'zgarishi bo'yicha doiraviy konvensiyasi (UNFCCC) doirasida qabul qilingan global iqlim kelishuvi bo'lib, dunyodagi barcha davlatlarni issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish va iqlim o'zgarishiga moslashishga undaydi. <https://unfccc.int/news/the-explainer-the-paris-agreement>.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "«O'zbekiston — 2030» strategiyasini «Atrof-muhitni asrash va «yashil iqtisodiyot» yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida", 30.01.2025 yildagi PF-16-Son farmoni. Toshkent sh. www.lex.uz

Отформатировано: междустрочный, множитель 0,94 ин

Код поля изменен

Отформатировано: Шрифт: Times New Roman

Отформатировано: Шрифт: Times New Roman

Отформатировано: Шрифт: Times New Roman, 7 пт

yangi uylar qurib bitkazilgan⁶. Tabiiyki, sanoatning bunday tez sur'atlarda rivojlanishi jiddiy ekologik muammolarni keltirib chiqarmoqda. Ayniqsa, Toshkent, Olmaliq, Nurafshon, Ohangaron, Angren, Bekobod va Quvasoy kabi hududlarda havo ifloslanishi darajasi yuqoriligicha qolmoqda. Bu esa, mazkur yo'nalishda olib borilayotgan ishlarni jadallashtirish hamda tadqiqotlar asosida aniq yechimlarni ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PQ 300-sonli "O'zbekiston – 2030" strategiyasi, 2023-yil 18-dekabrdagi PQ 397-sonli "Sanoatni rivojlantirish jamg'armasi faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risida", 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-sonli "«O'zbekiston — 2030» strategiyasini «Atrof-muhitni asrash va «yashil iqtisodiyot» yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida»gi farmoni va Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-noyabrdagi 800-sonli "O'zbekiston Respublikasida «yashil» iqtisodiyotga o'tishda milliy shaffoflik tizimini joriy etish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni takomillashtirish" ustuvor yo'nalishiga va BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga mos keladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mamlakat iqtisodiyotining "yashil" transformatsiyasini moliyaviy rag'batlantirish vositalari va korxonada ekologik chora-tadbirlar samaradorligini aniqlash, sanoat ishlab chiqarishining antropogen omillarini mintaqa aholisining hayot sifatiga ta'siri hamda moliyaviy rivojlanish va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik, rivojlanayotgan mamlakatlarning panel ma'lumotlari tahlillari, atrof-muhit qonunchiligining rivojlanish muammolari va istiqbollari, sanoat ishlab chiqarishini ko'kalamzorlashtirish loyihalarini amalga oshirishning algoritmlashtirilgan modelini ishlab chiqish hamda kichik korxonalar faoliyatini ekologik va iqtisodiy tartibga solish mexanizmini ishlab chiqish mavzularida Liu Lei, E.I.Lazareva, I.S.Belik, L.V.Kamdina, N.V.Starodubets, E.M.Ekanayake, A.P.Anisimov, T.V.Malysheva, A.I.Shinkevich, V.I.Boboshko va boshqa⁷ xorijiy olimlar tomonidan o'rganilgan.

Shuningdek, yashil iqtisodiyotning MDH mamlakatlaridagi rivojlanish modellari va baholash usullarining tahlillari, davlat tomonidan ekologik innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash, kichik va o'rta biznesni yashil texnologiyalarni joriy etishga rag'batlantirish kabi mexanizmlar hamda iqtisodiy va siyosiy globallashuvning MDH mamlakatlarida barqaror rivojlanishga ijobiy ta'siri,

⁶ https://parliament.gov.uz/news/atmosfera-havosi-ifloslanishining-oldini-olish-deputatlar-nazoratida?utm_source=chatgpt.com

⁷ Malysheva, T.V., & Shinkevich, A.I. (2020). Development of an algorithmized model for the implementation of a project for the greening of industrial production. Bulletin of the Samara Scientific Center of the Russian Academy of Sciences, 22(4), 74-80. / Anisimov Aleksey Pavlovich (2020). Развитие экологического законодательства в США: проблемы и перспективы. Известия Саратовского университета. Новая серия. Серия Экономика. Управление. Право, 20 (3), 301-309. / Liu Lei, Lazareva E. I. Financial incentive instruments of regional economy' «green» transformation. State and Municipal Management. Scholar Notes, 2024;(3):78–85. <https://doi.org/10.22394/2079-1690-2024-1-3-78-85>. EDN HFDLQK/ Ekanayake E.M., Thaver R. The nexus between financial development and economic growth: panel data evidence from developing countries. Journal of Risk and Financial Management. 2021; 14 (10): 480-489. / Бобошко В.И., Разработка механизма эколого-экономического регулирования деятельности малых предприятий (теория, методология, практика). Диссертация - Москва — 2009 г. / Потравный И.М. Экологические индикаторы качества роста региональной экономики. — М.: НИА-Природа, 2006. / Belik, I. S., Kamdina, L. V., & Starodubets, N. V. (2019). Influence of anthropogenic factors of industrial production on the quality of life of the population in the region. Economy of the region, 15(4), 1156-1168.

Код поля изменен

Код поля изменен

Отформатировано: Шрифт: Times New Roman

Отформатировано: Шрифт: Times New Roman

Отформатировано: Шрифт: 7 пт

Отформатировано: По левому краю

energiya iste'molining esa salbiy ta'siri mavzularida A.Pyagay, A.Tatikova, T.Medeni,

V.-I. Gissin, K.F.-Mekhantseva, T.I.-Putilina, M.A.-Surzhikov, O.Gasimli, I.U. Haq, S.Munir, M.H.-Khalid, S.K.N.-Gamage, A.Khan, M.Ishtiaq va boshqalar⁸ MDH mamlakatlari olimlari tomonidan o'rganilgan.

O'zbekistonlik olimlar M.A.Maxkamova, S.A.Nabiyeva, A.V.Vaxabov, H.P.Abulqosimov, T.S.Rasulov, A.F.Rasulov, A.M.Qodirov, A.R.Yoqubjonov, Z.T.Gaibnazarova, Sh.E.Sindarov, O.X.Xamrayev, I.Xotamov, M.Sultanov, A.Yadgarov va boshqalar⁹ning ilmiy asarlarida milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashda, jumladan, sanoat korxonalarini rivojlantirish, uning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish, sanoat korxonalarida innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish orqali samaradorlikka erishishning ayrim nazariy jihatlarini o'z izohini topgan.

Biroq, yuqoridagi ilmiy tadqiqotlarda yashil iqtisodiyot rivojlanishining ishlab chiqarish resurslariga ta'sirini baholashning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlari masalasi alohida ilmiy tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan. Tadqiqot ishida ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlar asosida sanoat korxonalarining ishlab chiqarish salohiyatini oshirishning hozirgi rivojlanish xususiyatlari va yashil iqtisodiyot jarayonlari e'tiborga olingan bo'lib, bu esa, tanlangan tadqiqot mavzusining dolzarbligi, maqsadi hamda unda hal etiladigan masalalar doirasini belgilashga keng imkoniyatlar yaratib beradi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi Xalqaro Nordik universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq FM-3 «Sanoatning «drayver» sohasini rivojlantirish va hududlarning sanoat salohiyatini to'liq ishga solish, «Yashil iqtisodiyot»ga o'tish, uning asosi bo'lgan qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish ko'rsatkichlarini takomillashtirish» mavzusidagi fundamental loyihasi (2023-2026-y.y.) doirasida bajarilgan.

⁸ Pyagay, A., Tatikova, A. & Medeni, T. Contradictions and patterns of eco-innovative strategies of SMEs in Central Asian countries: ambivalent dynamics of Kazakhstan. *J Innov Entrep* 14, 22 (2025). <https://doi.org/10.1186/s13731-024-00455-8> / Gissin, V. I., Mekhantseva, K. F., Putilina, T. I., & Surzhikov, M. A. (2018). «Green economy»: emerging national models, estimations, trends in EU and CIS. *European Research Studies Journal*, 21(Special issue 1), 156-166. / Gasimli, O., Haq, I. u., Munir, S., Khalid, M. H., Gamage, S. K. N., Khan, A., & Ishtiaq, M. (2022). Globalization and Sustainable Development: Empirical Evidence from CIS Countries. *Sustainability*, 14(22), 14684. <https://doi.org/10.3390/su142214684>

⁹ Maxkamova M.A Sanoat korxonalarida innovatsion faoliyat samaradorligini oshirish mexanizmi, iqtisod fanlar doktori, professor, Toshkent Davlat Texnika Universiteti. Научные исследования и инновации в индустрии 4.0 I-республиканская научно-техническая конференция (Ташкент, 13-15 марта 2022 года); Sanoat korxonalarida innovatsion salohiyatni rag'batlantirish mexanizmlari takomillashtirish. I.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan avtoreferat – T.: 2021; Vaxabov, A.V. Модернизация экономична. Учебное пособие / — T.: «IQTISOD — MOLIYA», 2014. – S. 200.; Abulkasimov X.P., Rasulov T.S. Особенности научно-технической и инновационной политики иностранного СНГ, Ближнего и Среднего Востока. Учебное служение. — Ти. Ташгив 2017. – S. 15-17.; Mahmudov N.M., Akabirova D.N. Strategiya innovatsionnogo razvitiya promyshlennosti Respubliki Uzbekistan v period modernizatsii ekonomiki: Monografiya. – T.: Iqtisodiyot, 2011.; O'zbekiston: jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, innovatsion taraqqiyot va milliy iqtisodiyot raqobatdoshligini oshirish / O'zFA, A.F. Rasulevning tahriri ostida. – T.: KONSAUDITINFORM – NASHR, 2011. – 408 b.; Qodirov A.M., Axmedova A.T., Alimova N.R. Strategiya innovatsionnogo razvitiya i ee vliyaniye na konkurentosposobnost ekonomiki Uzbekistana. – T.: Obshchestvo nauki Uzbekistana. №1-2, 2010, S. – 20.; Yoqubjonov A.R. Sovershenstvovanie institutsionalnoy sredy investitsionno-innovatsionnogo razvitiya ekonomiki Uzbekistana. I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. T.: 2011, 28 b.; Gaibnazarova Z.T. Innovatsion investitsiyalashtirish samaradorligini oshirishning nazariy asoslari. I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. T.: 2012, 25 b.; Sindarov Sh.E. O'zbekiston Respublikasining tadbirkorlik faoliyatida innovatsion jarayonlardan foydalanishning iqtisodiy mexanizmi. I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati T.: 2010, 28 b.; Madrahimov U.A. O'zbekistonda barqaror iqtisodiy o'sish sifatini oshirish yo'llari. I.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati T.: 2017, 71 b.; Xamiraev O.X. Iqtisodiy muvozanatning nazariy asoslari va uni ta'minlash mexanizmlari. I.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: 2006., 32 b. / I.Xotamov, M.Sultanov, A.Yadgarov. Atrof — muhit va tabiiy resurslar iqtisodiyoti. «Innovatsion rivojlanish nashriyotmatbaa uyi», 2021. 312 bet.



Отформатировано: узбекский (кириллица)

Отформатировано: узбекский (кириллица)

Код поля изменен

Отформатировано: Шрифт: Times New Roman

Отформатировано: Шрифт: Times New Roman

Отформатировано: Шрифт: Times New Roman, 7 пт

Tadqiqotning maqsadi yashil iqtisodiyot rivojlanishining ishlab chiqarish resurslariga ta'sirini baholash yuzasidan ilmiy asoslangan taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

sanoat korxonalarini iqtisodiy rivojlanishining ekologik xususiyatlarini o'rganish;

sanoat korxonalarining atrof-muhitga ta'siri ko'rsatkichlari va ularning mazmunini to'liq ochib berish;

yashil iqtisodiyotning shakllanishi sharoitida sanoat korxonalarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining xorij tajribasini o'rganish;

sanoat korxonalarida atrof-atrof-muhitni muhofaza qilish chora-tadbirlarini amalga oshirishda xarajatlar va foydani baholash;

sanoat korxonalarining ekologik va iqtisodiy samaradorligini baholash metodologiyasini takomillashtirish;

O'zbekistonda sanoat korxonalarini iqtisodiyotining ekologik tarkibiy qismi sifatida baholash va tahlil qilish;

sanoat korxonalarining ekologik-iqtisodiy faoliyatini qo'llab-quvvatlashning quyi tizimini rivojlantirish ahamiyatini o'rganish va tahlil qilish;

yashil iqtisodiyotga yo'naltirilgan sanoat korxonalarini iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti O'zbekiston Respublikasining sanoat korxonalarini va atrof-muhitni muhofaza qiluvchi tashkilotlar faoliyati hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini sanoat korxonalarini rivojlanishining atrof-muhitga ta'sirini baholashning iqtisodiy va ijtimoiy mexanizmlarini takomillashtirish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda ilmiy mushohada, analiz, sintez, statistik tahlil, empirik baholash, iqtisodiy-matematik, omilli tahlil, tanlanma kuzatuv, so'rovnoma usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

sanoat korxonalarida ekologik tadbirkorlik tushunchasining iqtisodiy mazmunini «ekologik xizmatlar», «ekologik mahsulotlar» hamda «ekologik standartlar» asosida takomillashtirish orqali energiya tejamkorligi, chiqindisiz texnologiyalar, qayta tiklanuvchi resurslar va sirkulyar iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan «yashil tadbirkor» maqomini berish taklif etilgan;

sanoat korxonalarida ekologik zararni baholashni onlayn monitoring qilishda mavjud «atrof-muhit ifloslanishi» metodikasining «yerning degradatsiyasi», «energiya iste'moli» va «chiqindilar va ularning qayta ishlanishi» mezonlari asosida yashil korxonalarining reyting ko'rsatkichlarini hisoblash orqali ekologik samaradorligini oshirish taklifi ilmiy asoslangan;

«yashil» iqtisodiyotga yo'naltirilgan sanoat korxonalarining ekologik-iqtisodiy faoliyati va sanoatni yashillashtirishga yo'naltirilgan loyihalarni davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash modelini «yashil obligatsiyalar», «yashil fondlar» hamda «yashil sug'urta» indikatorlariga asoslangan yashil investitsiyalash tizimi orqali takomillashtirish taklifi ilmiy asoslangan;

sanoat korxonalarini yashil iqtisodiyotga yo'naltirishda moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmi «Moliyaviy» (yashil obligatsiyalar, yashil kreditlar, yashil soliqlar), «Ekologik» (atmosfera chiqindilarini qisqartirish, energiya samaradorligini

Отформатировано: Шрифт: Times New Roman

Отформатировано: Шрифт: Times New Roman

Отформатировано: Шрифт: 7 пт

Отформатировано: По левому краю

o'shish, umumiy ishlab chiqariladigan energiyada qayta tiklanuvchi energiyaning ulushini o'shish) "Ijtimoiy" (yangi ish o'rinlarini yaratish) "Institutsional" (yashil moliyalashtiruvchi tashkilotlar soni, regulyativ islohotlar soni)- indikatorlar orqali takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

sanoat korxonalarida ekologik tadbirkorlik tushunchasining iqtisodiy mazmunini «ekologik xizmatlar», «ekologik mahsulotlar» hamda «ekologik standartlar» asosida takomillashtirish orqali energiya tejamkorligi, chiqindisiz texnologiyalar, qayta tiklanuvchi resurslar va sirkulyar iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan «yashil tadbirkor» maqomini berishga asoslanib oliy o'quv yurti talabalari uchun tavsiya etilgan «Makroiqtisodiy tahlil» faniga oid darslik tayyorlashda foydalanilgan hamda korxonalariga «yashil tadbirkor» maqomini berish tizimi joriy etilgan;

sanoat korxonalarida ekologik zararni baholashni onlayn monitoring qilishda mavjud «atrof-muhit ifloslanishi» metodikasining «yerning degradatsiyasi», «energiya iste'moli» va «chiqindilar va ularning qayta ishlanishi» mezonlari asosida yashil korxonalarining reyting ko'rsatkichlarini hisoblash orqali ekologik samaradorligini o'shish taklifi ilmiy asoslanib, sanoat korxonalarining ekologik-iqtisodiy samaradorligini onlayn monitoring qilish tizimi takomillashtirilgan;

«yashil obligatsiyalar», «yashil fondlar» hamda «yashil sug'urta» indikatorlariga asoslangan sanoat korxonalarining ekologik-iqtisodiy faoliyati va sanoatni yashillashtirishga yo'naltirilgan loyihalarni davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash modeli takomillashtirilgan;

sanoat korxonalarini yashil iqtisodiyotga yo'naltirishda moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmini "moliyaviy", "ekologik", "ijtimoiy", "institutsional" kabi "yashil moliyalash" indikatorlari orqali takomillashtirilgan.

Olingan natijalarning ishonchliligi. Dissertatsiyada foydalanilgan axborot bazasining ishonchliligi ularning rasmiy manbalardan olinganligi, modellashtirish va prognozlash yordamida olingan natijalarning ishonchliligi ularning turli statistik mezonlar yordamida baholanganligi, ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning ishonchliligi esa, respublikada sanoat korxonalarini rivojlanishining atrof-muhitga ta'sirini baholashning iqtisodiy va ijtimoiy mexanizmlari bo'yicha qabul qilingan ustuvor yo'nalish va dasturlarga qay darajada muvofiqligi hamda tegishli xulosalarning mutasaddi tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy etishga qabul qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada ishlab chiqilgan ilmiy-metodologik taklif va tavsiyalar innovatsion salohiyatni sanoat korxonalarida takomillashtirish orqali ishlab chiqarish faoliyati samaradorligini o'shish, sanoatning fan sig'imi yuqori bo'lgan tarmoq korxonalarining ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmini boyitishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati sanoat korxonalarida ekologik-iqtisodiy mexanizmini ishlab chiqish, korxonalarda yashil iqtisodiyotga transformatsiyasini amalga oshirishning moliyaviy mexanizmini takomillashtirish hamda sanoatning fan sig'imi yuqori bo'lgan tarmoqlarda ekologik salohiyat samaradorligini o'shish konsepsiyasi, tarmoq korxonalarini rivojlantirishga oid kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish, shuningdek, "Sanoat iqtisodiyoti",

“Innovatsion iqtisodiyot”, “Yashil iqtisodiyoti” va “Makroiqtisodiy tahlil” fanlari bo‘yicha o‘quv dasturlarini takomillashtirish, darslik, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Sanoat korxonalarini rivojlanishining atrof-muhitga ta‘sirini baholash bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

sanoat korxonalarida ekologik tadbirkorlik tushunchasining iqtisodiy mazmunini «ekologik xizmatlar», «ekologik mahsulotlar» hamda «ekologik standartlar» asosida takomillashtirish orqali energiya tejamkorligi, chiqindisiz texnologiyalar, qayta tiklanuvchi resurslar va sirkulyar iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan «yashil tadbirkor» maqomini berish taklifi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi loyihasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi [ekologiyaEkologiya](#), atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining 2025-yil 25-martdagi 03-03/1-03/3-2884-son ma‘lumotnomasi). Natijada “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirish bo‘yicha davlat dasturining 19-bandi a qismiga asosan korxonalariga “yashil tadbirkor” maqomini berish tizimi shakllanishiga xizmat qilgan;

sanoat korxonalarida ekologik zararni baholashni onlayn monitoring qilishda mavjud «atrof-muhit ifloslanishi» metodikasining «yerning degradatsiyasi», «energiya iste‘moli» va «chiqindilar va ularning qayta ishlanishi» me‘zonlari asosida yashil korxonalarining reyting ko‘rsatkichlarini hisoblash orqali ekologik samaradorligini oshirish taklifi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi loyihasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi [ekologiyaEkologiya](#), atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining 2025-yil 25-martdagi 03-03/1-03/3-2884-son ma‘lumotnomasi). Mazkur taklifning qo‘llanilishi natijasida “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirish bo‘yicha davlat dasturining 19-bandining b qismiga asosan sanoat korxonalarining ekologik-iqtisodiy samaradorligini onlayn monitoring qilish tizimi takomillashtirilgan;

“yashil” iqtisodiyotga yo‘naltirilgan sanoat korxonalarining ekologik-iqtisodiy faoliyati va sanoatni yashillashtirishga yo‘naltirilgan loyihalarni davlat tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlash modelini «yashil obligatsiyalar», «yashil fondlar» hamda «yashil sug‘urta» indikatorlariga asoslangan yashil investitsiyalash tizimi orqali takomillashtirish bo‘yicha bergan taklifi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi loyihasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi [ekologiyaEkologiya](#), atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining 2025-yil 25-martdagi 03-03/1-03/3-2884-son ma‘lumotnomasi). Mazkur modellardan foydalanish natijasida “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yili-da amalga oshirish bo‘yicha davlat dasturining 21-bandining b qismiga asosan sanoatni yashillashtirish bo‘yicha loyihalarni qo‘llab-quvvatlash faoliyati rivojlantirilgan;

sanoat korxonalarini yashil iqtisodiyotga yo‘naltirishda moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmini “Moliyaviy” (yashil obligatsiyalar, yashil kreditlar, yashil soliqlar), “Ekologik” (atmosfera chiqindilarini qisqartirish, energiya samaradorligini

Отформатировано: Шрифт: Times New Roman

Отформатировано: Шрифт: Times New Roman

Отформатировано: Шрифт: 7 пт

Отформатировано: По левому краю

o'shish, umumiy ishlab chiqariladigan energiyada qayta tiklanuvchi energiyaning ulushini oshirish) "Ijtimoiy" (yangi ish o'rinlari yaratish) "Institutsional" (yashil moliyalashtiruvchi tashkilotlar soni, regulativ islohotlar soni)- indikatorlar orqali takomillashtirish bo'yicha bergan taklifi "O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi loyihasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi [ekologiya](#)Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining 2025-yil 25-martdagi 03-03/1-03/3-2884-son ma'lumotnomasi). Buning natijasida "O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirish bo'yicha davlat dasturining 21-bandining a qismiga asosan yashil moliyalashtirish tizimini takomillashtirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy maqola chop etilgan bo'lib, xususan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan 6 ta ilmiy nashr, shu jumladan, 1 ta ilmiy maqola nufuzli xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, 8 ta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan bo'lib, uning hajmi 145 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, obyekt va predmeti shakllantirilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilishning sinovdan o'tganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

"Sanoat korxonalarini ekologik jihatdan ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligining ilmiy-nazariy asoslari" deb nomlangan birinchi bobida sanoat korxonalarini iqtisodiy rivojlanishining ekologik xususiyatlari, sanoat korxonalarining atrof-muhitga ta'siri ko'rsatkichlari va ularning mazmuni, yashil iqtisodiyotning shakllanishi sharoitida sanoat korxonalarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining xorij tajribasini o'rganib chiqqan holda tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Sanoat korxonalarini har qanday mamlakat iqtisodiy o'sishining muhim tarkibiy qismini tashkil etadi. Ular ish o'rinlarini yaratish, innovatsiyalarni joriy etish va texnologik taraqqiyotni rag'batlantirish orqali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga xizmat qiladi. Biroq bu rivojlanish ekologik muvozanatga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Xususan, sanoat chiqindilari, havoga zararli moddalar chiqarilishi va tabiiy resurslardan haddan tashqari samarasiz foydalanish ekologik xavf tug'diradi.

Zamonaviy sanoat yondashuvlari doirasida ekologik jihatlar tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ijobiy ekologik xususiyatlar sifatida ekologik toza texnologiyalarni qo'llash, chiqindilarni qayta ishlash va energiya samaradorligini oshirish kabilarni ko'rsatish mumkin. Shu bilan birga, yashil iqtisodiyot

Отформатировано: Шрифт: Times New Roman

Отформатировано: Шрифт: Times New Roman

Отформатировано: Шрифт: Times New Roman, 7 пт

konsepsiyasi doirasida sanoat korxonalarini barqarorlik prinsiplariga asoslangan tarzda rivojlantirish zarurati kun tartibiga chiqmoqda.

Mutaxassislarning baholashlariga ko'ra, sanoat korxonalarini havoga 200 million tonnadan ortiq uglerod oksidi va dioksidi, 150 million tona oltingugurt dioksidi va boshqa zararli moddalarni chiqaradi. Sanoat korxonalaridan tozalanmagan chiqindi suvlarning suv havzalariga chiqarilishi (qon, simob, kamiy, neft mahsulotlari, sintetik faol moddalar va boshqalar) gidrosfera ustida salbiy ta'sir ko'rsatadi. Sanoat korxonalarining faoliyati natijasida og'ir metall va kimyoviy moddalar (azot, fosfor, kaliy va boshqalar) tuproqqa tushib, bu oxir-oqibatda eroziya, sho'rlanish va boshqa salbiy oqibatlarga olib keladi¹⁰.

Sanoat ishlab chiqarishining jadal sur'atlar bilan rivojlanishi, bir tomondan iqtisodiy o'sishga xizmat qilsa, boshqa tomondan ekologik muhitga kuchli salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, sanoat korxonalarining havo, suv, yer resurslariga va bioxilma-xillikka ta'siri butun dunyo miqyosida dolzarb ekologik muammolar qatoriga kiradi. Shu sababli sanoat faoliyatining atrof-muhitga ta'sirini aniqlash va baholash uchun muayyan ekologik ko'rsatkichlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, Sanoat korxonalarini tomonidan atmosferaga chiqarilayotgan zararli moddalar (SO₂, NO_x, CO₂), ~~oqova-oqova~~ suvlar tarkibi va miqdori, qattiq chiqindilar hajmi, energiya sarfi samaradorligi, iqlimga ta'sir ko'rsatkichlari, hamda ekologik monitoring mavjudligi asosiy baholovchi ko'rsatkichlar sifatida ajratib ko'rsatilgan (1-jadval).

1-jadval Sanoat korxonalarining ekologik ta'sir ko'rsatkichlari bo'yicha

Отформатировано: узбекский (кириллица)

Отформатировано: Заголовок, По ширине, Отступ:
Первая строка: 1,25 см, междустрочный, множитель 0,95
ин

¹⁰ Belik, I. S., Kamdina, L. V., & Starodubets, N. V. (2019). Influence of anthropogenic factors of industrial production on the quality of life of the population in the region. *Economy of the region*, 15(4), 1156-1168.

Отформатировано: Шрифт: Times New Roman

Отформатировано: Шрифт: Times New Roman

Отформатировано: Шрифт: 7 пт

Отформатировано: По левому краю

solishtirma tahlil¹¹

Ko'rsatkich nomi	Ko'rsatkich mazmuni	Ekologik ta'sir	Iqtisodiy oqibatlar
Atmosferaga chiqarilayotgan gazlar	CO ₂ , SO ₂ , NO _x gazlarining miqdori	Havo ifloslanishi, sog'liq yomonlashuvi	Ekologik soliqlar, tozalash xarajatlari
<u>Qoqava-Oqova</u> suvlar miqdori	Sanoat faoliyatidagi ifloslangan suvlar	Suv havzalarining ifloslanishi, ichimlik suvi tanqisligi	Tozalovchi binolarga ehtiyoj, suv jarimalari
Qattiq chiqin-dilar hajmi	Ishlab chiqarish chiqindilari	Yer degradatsiyasi, chiqin-di poligonlarining to'lishi	Utilizatsiya xarajatlari, chiqindi boshqaruvi
Energiya samaradorligi	Sarflanayotgan energiya hajmi	Resurslar isrof bo'lishi	Ishlab chiqarish xarajatlarining oshishi
Iqlimga ta'sir (GHG emissiyasi)	Issiqxona gazlari (karbon izlari)	Global isish, ekstremal ob-havo	Karbon kvotalari, xalqaro majburiyatlar
Bioxilma-xillikka ta'siri	Hududdagi tabiiy ekotizimlarga zarar	Biologik xilma-xillik kamayishi	Tabiiy resurslarga qaramlik kuchayadi
Ekologik monitoring mavjudligi	Korxonada ekologik nazorat tizimi mavjud yoki yo'qligi	Ekologik nazorat darajasi past bo'lsa, xavf kuchayadi	Monitoring xarajatlari, lekin xavf oldi olinadi

Отформатировано: междустрочный, множитель 0,94 ин

Отформатированная таблица

Отформатировано: междустрочный, множитель 0,94 ин

So'nggi o'n yilliklarda ekologik muammolarning kuchayishi, iqlim o'zgarishi, tabiat resurslarining cheklanganligi va demografik bosim global iqtisodiy modelni qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Shu sababli, dunyoda "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasiga asoslangan yangi rivojlanish paradigmasi shakllandi. Shuni ta'kidlash kerakki, sanoat korxonalarining atrof-muhitga ekologik ta'siri juda keng qamrovli bo'lib, atmosferaga chiqarilayotgan zaharli chiqindilar, suvning ifloslanishi va quruqlikning qisqarishi kabi ko'plab ta'sir etuvchi elementlarni o'z ichiga oladi. Sanoatning rivojlanishi bilan bir qatorda, ekologik ta'sir ham kuchlanadi kuchayadi, bu esa tabiiy resurslarning kamayishi, iqlim o'zgarishlari va odamlarning sog'ligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Отформатировано: узбекский (кириллица)

Yashil iqtisodiyot resurslardan oqilona foydalanish, past uglerodli ishlab chiqarish, atrof-muhitni muhofaza qilish va ijtimoiy tenglikni o'zida mujassam etgan iqtisodiy tizim bo'lib, ushbu iqtisodiyot modeli sanoat korxonalarining ekologik va ijtimoiy jihatdan mas'uliyatli faoliyatini taqozo etadi. Bunday iqtisodiy modelni amaliyotga joriy etishda rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar turlicha yondashuvlar ishlab chiqmoqda.

Shu bilan birga, sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishini ta'minlashda xalqaro doirada bir qator konsepsiyalardan foydalanilmoqda (2-jadval).

2-jadval

Barqaror sanoat rivojlanishini ta'minlovchi asosiy konseptual yondashuvlar¹²

Отформатировано: интервал после: 6 пт

Отформатировано: Шрифт: Times New Roman

Отформатировано: Шрифт: Times New Roman

Отформатировано: Шрифт: Times New Roman, 7 пт

¹¹ Muallif ishlanmasi.

¹² Sustainable Development and Industrial Ecology. (2007, September 28). Sustainable Development and Industrial Ecology — ScienceDirect. <https://doi.org/10.1016/B978-012373623-9/50005-8>

№	Konseptual yondashuv nomi	Ta'rif (izoh)	Asosiy maqsadi
1	Toza ishlab chiqarish (Clean Production, CP)	Chiqindilar va ifloslanish darajasini kamaytirishga yo'naltirilgan ekologik xavfsiz ishlab chiqarish modeli	Atrof-muhitga zarar yetkazmasdan samarali ishlab chiqarishni ta'minlash
2	Atrof-muhitni boshqarish tizimi (EMS)	Korxonalarda ekologik faoliyatni tizimli va doimiy nazorat asosida tashkil etish	Ekologik me'yorlarga mos, nazoratli boshqaruvni yo'lga qo'yish
3	7R tamoyillari	Reduce, Reuse, Recycle, Recover, Redesign, Remanufacture, Repurpose tamoyillaridan iborat yondashuv	Resurslardan samarali foydalanish va chiqindilarni kamaytirish
4	Sanoat ekologiyasi (Industrial Ecology, IE)	Ishlab chiqarishni tabiiy ekotizimga yaqinlashtirish orqali yopiq resurs oqimini shakllantirish	Tabiat va sanoat o'rtasida barqaror simbioz muvozanatini ta'minlash
5	Atrof-muhitga ta'sirni baholash (EIA)	Yirik loyihalar ekologik oqibatlarini oldindan aniqlash va baholash tizimi	Salbiy ta'sirlarning oldini olish va ekologik qarorlarni asoslash
6	Axborot texnologiyalari (IT)	Ekologik monitoring va boshqaruv tizimlarini avtomatlashtirish, raqamlashtirish	Tezkor nazorat, tahlil va samaradorlikni oshirish

Отформатировано: междустрочный, множитель 0,95 ин

Отформатировано: Шрифт: 7 пт

Yashil iqtisodiyot sharoitida sanoat korxonalarining ekologik barqarorligini ta'minlash va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining izchil davom etishi uchun bir qator strategik va texnologik yondashuvlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Отформатировано: междустрочный, множитель 1,02 ин

2-jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, sanoat korxonalarining barqaror rivojlanish konsepsiyalari ijtimoiy, texnologik, iqtisodiy va ekologik jihatlarni ifoda etuvchi metodologiyalar majmui hisoblanadi.

Sanoat korxonalarining yashil transformatsiyasi, shubhasiz, ularning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Avvalo, ekologik toza texnologiyalar yuqori sarmoya talab qilgan bo'lsa-da, uzoq muddatda energiya xarajatlarini kamaytirish, ekologik jarimalardan saqlanish va xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirish imkonini beradi.

Отформатировано: междустрочный, множитель 0,96 ин

Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan ko'rinadiki, sanoatni yashillantirish uchun davlatning faolligi va xususiy sektor bilan hamkorligi muhim omil hisoblanadi. Masalan, Germaniyada "Energiewende" dasturi doirasida sanoat ishlab chiqarishining 50% dan ortig'i qayta tiklanuvchi manbalarga o'tgan. Janubiy Koreya "Green New Deal" orqali 1 milliarddan ortiq yangi yashil ish o'rinlari yaratdi. Xitoy esa karbon kredit bozori orqali sanoat korxonalarini energiya samaradorligiga undamoqda (3-jadval).

3-jadval

Xorijiy mamlakatlarda yashil iqtisodiyotga yo'naltirilgan iqtisodiyot¹³

Davlat	Asosiy strategik yo'nalishlar	Moliyaviy vositalar	Natijalar va afzalliklar
Germaniya	Energiya o'zgarishi ("Energiewende"), qayta tiklanuvchi energiya	Yashil obligatsiyalar, soliq imtiyozlari	2023-yilda energiyaning 50% dan ortig'i qayta tiklanuvchi manbalardan
Janubiy Koreya	Yashil texnologiyalar eksportini kengaytirish, "Green New Deal"	Innovatsion grantlar, texnoparklar	Yashil ish o'rinlari soni 1 milliarddan oshdi

Отформатировано: междустрочный, множитель 0,95 ин

Отформатировано: междустрочный, множитель 0,95 ин

Отформатировано: междустрочный, множитель 0,95 ин

Отформатировано: Шрифт: Times New Roman

Отформатировано: Шрифт: Times New Roman

Отформатировано: Шрифт: 7 пт

Отформатировано: По левому краю

¹³ Muallif ishlanmasi

Xitoy	Ekologik standartlar, karbon kredit bozori yaratish	Yashil kreditlar, davlat kafolatlari	Energiya samaradorligi 40% ga oshirildi
Shvetsiya	Aholini "yashil" iste'molga rag'batlantirish	Ijtimoiy grantlar, ekologik sertifikatlar	CO ₂ chiqindilari 1990-yildan beri 25% ga kamaydi
AQSh	Yashil infratuzilma va sanoat loyihalarini qo'llab-quvvatlash	Federal investitsiyalar, IRS soliq chegirmalari	370 milliard dollarlik "Inflation Reduction Act" orqali yashil iqtisodiyotni moliyalashdi

Отформатировано: междустрочный, множитель 0,95 ин

Отформатированная таблица

Отформатировано: междустрочный, множитель 0,95 ин

Отформатировано: междустрочный, множитель 0,95 ин

Отформатировано: Шрифт: 5 пт

Отформатировано: междустрочный, множитель 0,96 ин

Ta'kidlash joizki O'zbekistonda ham ekologik muammolarning keskinlashuvi, iqlim o'zgarishi ta'sirining kuchayishi va resurslardan isrofgarchilik bilan foydalanish holatlarining ko'payishi, havoning ifloslanish ko'rsatkichlari sezilarli ortib borayotgani yashil iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda. Xususan, sanoat va tadbirkorlik subyektlarini ekologik jihatdan mas'uliyatli faoliyatga yo'naltirish dolzarb masalaga aylandi. Shu nuqtai nazardan, yangi iqtisodiy faoliyat shakli sifatida yashil tadbirkorlik va ekologik tadbirkorlik atamalari paydo bo'ldi. Garchi bu ikki tushuncha o'zaro yaqin bo'lsa-da, ular maqsadi, ko'lam va funksional yo'nalishlari jihatidan bir-biridan farqlanadi.

Olimlarning ta'rifiga ko'ra yashil tadbirkorlik ko'proq strategik va tizimli yondashuvga asoslangan atrof-muhit muammolariga yechim topish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash va shu bilan birga iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni qo'llab-quvvatlaydigan biznes modelidir. Bu yondashuvda asosiy e'tibor energiya tejamkorligi, chiqindisiz texnologiyalar, qayta tiklanuvchi resurslar va sirkulyar iqtisodiyot tamoyillariga qaratiladi. Ekologik tadbirkorlik tushunchasi esa nisbatan torroq ko'lamda, ya'ni faqat atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq faoliyatni ifodalaydi. Ekologik tadbirkorlik atrof-muhitga zarar yetkazmaslikni asosiy maqsad qilgan, foyda olish bilan ekologik holatni yaxshilashga xizmat qiluvchi biznes faoliyati sifatida talqin etiladi. Bunda ekologik audit, chiqindilarni utilitatsiya qilish, toza suv texnologiyalari va boshqa bevosita ekologik xizmatlar ustuvor yo'nalish hisoblanadi. Tadqiqot natijalariga asosan, bu ikki tushuncha orasidagi asosiy farqlar ko'rsatib o'tiladi (4-jadval).

4-jadval

Ekologik va yashil tadbirkorlik farqlari¹⁴

Asosiy mezon	Yashil tadbirkorlik	Ekologik tadbirkorlik
Strategik	Barqarorlik: ekologik + iqtisodiy + ijtimoiy	Atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish
Ko'lam	Makroiqtisodiy	Texnik va amaliy
Faoliyat turi	Yashil texnologiyalar, qayta ishlash, sirkulyar model	Ekologik xizmatlar va ekologik mahsulotlar
Natija	Innovatsion yechimlar, barqaror tizim	Ekologik muammolarga texnik yechimlar

Отформатировано: междустрочный, множитель 0,95 ин

Отформатированная таблица

Отформатировано: междустрочный, множитель 0,95 ин

Отформатировано: интервал Перед: 0 пт, междустрочный, множитель 0,96 ин

Ilgari mamlakatimizda ekologik faoliyatni tadbirkorlik bilan integratsiyalash bo'yicha mavjud yondashuvlar, asosan, umumiy targ'ibot ishlari, ayrim ekoloyihalarga imtiyozlar berish yoki soliq yengilliklari taqdim etish kabi cheklangan chora-tadbirlardan iborat edi. Bunday yondashuvlar tizimli va strategik asosga ega bo'lmay, ko'pincha tashabbuslarning samarasini baholash imkonini

Отформатировано: Шрифт: Times New Roman

Отформатировано: Шрифт: Times New Roman

Отформатировано: Шрифт: Times New Roman, 7 пт

¹⁴ Muallif ishlanmasi

beruvchi aniq mezonlar va indikatorlarning mavjud emasligi bilan tavsiflanardi. Mana shu ehtiyojlardan kelib chiqqan holda ekologik barqarorlik, iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy mas'uliyatni uyg'unlashtirgan yangi tadbirkorlik modelining institutsional ifodasi sifatida "yashil tadbirkor" maqomini berish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ushbu maqomni amaliyotga joriy etishda aniq va o'Ichovli mezonlarga asoslangan baholash tizimi talab etiladi. Bunda "ekologik xizmatlar", "ekologik mahsulotlar" va "ekologik standartlar" ushbu maqomni belgilovchi asosiy tarkibiy elementlar sifatida qaraladi.

Dissertatsiya ishining **"Sanoat korxonalari atrof-muhitga bog'liqligining xususiyati va zamonaviy tendensiyalari"** deb nomlangan ikkinchi bobida sanoat korxonalarida atrof-muhitni muhofaza qilish chora-tadbirlarini amalga oshirishning iqtisodiy ko'rsatkichlar tahlili, sanoat korxonalarining ekologik va iqtisodiy samaradorligini baholash metodologiyasi, O'zbekistonda sanoat korxonalari iqtisodiyotining ekologik tarkibiy qismi sifatida ahamiyati ilmiy asoslangan.

Sanoat korxonalarini tomonidan atrof-muhitning me'yoriy sifatiga erishishning asosiy bosqichlarini iqtisodiy asoslashda, ekologik tadbirlarni amalga oshirishning iqtisodiy samaradorligini hisoblash, shuningdek amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini baholash uchun mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining 2011-yil 1-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi ekologik sertifikatlashtirish tizimi. Ekologik sertifikatlashtirish majburiy bo'lgan mahsulot va chiqindilarning ekologik xavfsizligi mezonlari. Asosiy qoidalar"¹⁵ davlat standartlashtirish tizimiga asosan ekologik samaradorlikni baholash metodo-logiyasi hozirgi kunda qo'llanilib kelmoqda. Unga ko'ra, "Ekologik samaradorlikni baholash — tashkilotning o'tgan va hozirgi ekologik samaradorligini, ushbu tashkilot uchun belgilangan ekologik samaradorlik mezonlari bilan taqqoslash imkoniyatini beruvchi ko'rsatkichlar ishlatiladigan, boshqarishning ichki jarayonidir"¹⁶, deb ifodalangan.

Atrof-muhitni muhofaza qilish chora-tadbirlari atrof-muhitga salbiy antropogen ta'sirni kamaytirish, mamlakatning tabiiy-resurs salohiyatini saqlash, yaxshilash hamda ulardan oqilona foydalanishga qaratilgan iqtisodiy faoliyatning barcha turlarini o'z ichiga oladi. Bunda tozalash va zararsizlantirish inshootlari va qurilmalarini qurish hamda ulardan foydalanish, kam chiqindi va chiqindisiz texnologik jarayonlar, ishlab chiqarishlarni rivojlantirish, korxonalar va transport oqimlar tizimlarini joylashtirish, shuningdek, ekologik talablarni hisobga olgan holda melioratsiya, tuproq eroziyasini nazorat qilish choralari, flora va faunani muhofaza qilish hamda ko'paytirish, yer ostini muhofaza qilish va mineral resurslardan oqilona foydalanish bo'yicha faoliyat turlarini inobatga olish lozim (1-rasm).

¹⁵ <https://lex.uz/docs/-2526084>

¹⁶ O'zbekiston Respublikasi tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi. O'z dst 11.4.0:2010/ O'zbekiston Respublikasi Respublikasi ekologik sertifikatlashtirish tizimi. Ekologik sertifikatlashtirish majburiy bo'lgan mahsulot va chiqindilarning ekologik xavfsizligi mezonlari. Asosiy qoidalar.

Отформатировано: междустрочный, множитель 0,96 ин

Отформатировано: русский


Код поля изменен

Отформатировано: Шрифт: Times New Roman

Отформатировано: Шрифт: Times New Roman

Отформатировано: Шрифт: 7 пт

Отформатировано: По левому краю



1-rasm. Sanoat korxonalarining ekologik monitoring jarayoni¹⁷

Отформатировано: междустрочный, множитель 0,97 ин

Shu bilan birgalikda, metodologiyada atrof-muhitni muhofaza qilish tadbirlarini iqtisodiy asoslashning quyidagi tamoyillarini asoslash kerak:

prognozli va rejalashtirilgan atrof-muhitni muhofaza qilishni kompleks maqsadlarga erishishni ta'minlash;

ishlab chiqarishni rivojlantirish natijasida yuzaga keladigan istiqbolli o'zgarishlarni hisobga olgan holda sog'liqni saqlash, odamlar va atrof-muhitni muhofaza qilish manfaatlariga javob beradigan atrof-muhit sifatiga qo'yiladigan me'yoriy talablarga rioya qilish;

atrof-muhit holatini yaxshilashdan maksimal atrof-muhit, tabiiy kapitalni tejash va tabiiy resurslardan to'liq foydalanish.

Ma'lumki, atrof-muhitni muhofaza qilish tadbirlarining umumiy iqtisodiy samaradorligi quyidagi maqsadlarda belgilanadi:

profilaktika va himoya choralar xarajatlari natijalarini belgilash;

korxonalarda real va rejali tannarx samaradorligining xususiyatlarini aniqlash;

turli sohalarda atrof-muhitni muhofaza qilish tadbirlarining ustuvorligi to'g'risida qarorlar qabul qilish.

Atrof-muhitni muhofaza qilish tadbirlari bo'yicha umumiy (mutlaq) iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichi tabiatni muhofaza qilish tadbirlaridan olingan yillik umumiy iqtisodiy foydaning ularni amalga oshirishga sarflangan xarajatlarga nisbati sifatida hisoblanadi.

Atrof-muhitni muhofaza qilish tadbirlarining samaradorligi quyidagi formula asosida aniqlanadi:¹⁸

Отформатировано: междустрочный, множитель 0,96 ин

Отформатировано: Шрифт: Times New Roman

Отформатировано: Шрифт: Times New Roman

Отформатировано: Шрифт: Times New Roman, 7 пт

¹⁷ Muallif ishlanmasi

¹⁸ Muallif tomonidan Бобошко В.И., Разработка механизма эколого-экономического регулирования деятельности малых предприятий (теория, методология, практика). Диссертация- Москва — 2009 г. dan foydalanib takomillashtirildi.

$$S_{umumiy} = \frac{\sum_{i=1}^N (F_{iqt} + F_{atrof} + F_{ijt})}{\sum_{i=1}^N X_{davr}} \quad (1)$$

bu yerda:

S_{umumiy} - tabiatni muhofaza qilish tadbirlarining umumiy iqtisodiy samaradorligi, ya'ni har 1 so'mlik xarajatga to'g'ri keladigan foyda;

F_{iqt} - ishlab chiqarish iqtisodiy natija, ya'ni tabiatni muhofaza qilish choralari tufayli ishlab chiqarishda erishilgan foyda (masalan, yo'qotishlarning kamayishi, mahsuldorlik ortishi);

F_{atrof} - ekologik-iqtisodiy natija, ya'ni atrof-muhitning yaxshilanishi orqali keladigan iqtisodiy foyda (masalan, toza havo, kamaygan chiqindilar);

F_{ijt} - ijtimoiy-iqtisodiy natija, ya'ni sog'liqni saqlash xarajatlarining kamayishi, aholi salomatligining yaxshilanishi, ish o'rinlari ko'payishi kabi omillar orqali olingan foyda;

X_{davr} - t davridagi i-chi tadbir uchun umumiy xarajatlar (sarflar), ya'ni ekologik tadbirlarni amalga oshirish uchun ajratilgan mablag'lar.

Yuqorida aks etgan 1-formulaga asosan, F_{atrof} qiymati o'z ichiga energiya ist'emolini tejashdan olingan foyda, sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqariladigan chiqindilarning kamayishi va ularni qayta ishlashdan olingan foyda hamda yerning degradatsiyasini kamaytirishdan olingan foyda-miqdorlarini qamrab olgan.

$$F_{atrof} = F_{ener.ist}^A + F_{chiq.}^A + F_{yer.}^A \quad (2)$$

Shu asnoda, ekologik-iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichi F_{atrof} shakllantirib S_{umumiy} indeksini takomillashtirildi. Shuningdek, tadqiqot jarayonida atrof-muhitni muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirish samaradorligi xarajatlar (S_{umumiy} indeksi)-ga ta'sirini baholashda bir necha korxonalarining tahlilini amalga oshirildi. Buni "Navoiyazot" AJ misolida ko'rish mumkin (5-jadval).

5-jadval

"NAVOIAZOT" AJning ekologik-iqtisodiy samaradorlik


Yil	F_iqt	F_atrof	F_ijt	X_davr	F_jami	S_umumiy
2019	1035.0	223.0	195.0	1903.0	1453.0	0.763
2020	1125.0	267.0	194.0	1956.0	1586.0	0.810
2021	1243.0	327.0	215.0	2085.0	1785.0	0.856
2022	1513.0	365.0	268.0	2342.0	2146.0	0.916
2023	1734.0	411.0	306.0	2655.0	2451.0	0.923

Yuqoridagi formuladan foydalanib olingan natijalarga asosan xulosa qiladigan bo'lsak, Bulardan "Navoiyazot" AJ hisoblangan umumiy samaradorlik (S_{umumiy}) ko'rsatkichi 2019-yilda 0.763 indeksga ega bo'lsa, 2023-yilda 0.923 ko'rsatkichga yetdi. Bu dinamika "Navoiyazot" AJ tomonidan amalga oshirilayotgan "yashil iqtisodiy" siyosat, texnologik modernizatsiya va ijtimoiy dasturlarning samaradorligini yaqqol namoyon etadi. Ushbu o'sish tendensiyasi korxonada barqaror rivojlanish prinsiplariga rioya qilinishi va atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirishga qaratilayotgan sa'y-harakatlar samarasi sifatida baholanadi. "Navoiyazot" AJ tomonidan amalga oshirilayotgan "yashil" iqtisodiy siyosat, ekologik investitsiyalar va ijtimoiy dasturlar korxonada faoliyatining barqarorligini

- Отформатировано: междустрочный, множитель 0,95 ин
- Отформатировано: Шрифт: 4 пт
- Отформатировано: междустрочный, множитель 0,95 ин

- Отформатировано: Шрифт: Times New Roman
- Отформатировано: Шрифт: Times New Roman
- Отформатировано: Шрифт: 7 пт
- Отформатировано: По левому краю

o'shishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. S_umumiy ko'rsatkichining yildan-yilga oshib borayotgani bu jarayonning natijadorligini yaqqol tasdiqlaydi.



2-rasm. Sanoat korxonalari uchun 2019–2023-yillar davomida S_umumiy ko'rsatkichining o'rtacha qiymatlari²⁰

Shu bilan birgalikda, "Olmaliq" AGMK korxonasi uchun 2019–2023-yillar davomida S_umumiy ko'rsatkichining o'rtacha qiymati — 0.9128 ga teng bo'ldi. Bu ko'rsatkich, korxonaning iqtisodiy, atrof-muhit va ijtimoiy zararlarini umumiy faoliyat hajmiga nisbatan baholaydi. S_umumiy qiymati qancha katta bo'lsa, shuncha samarali va barqaror ekologik-iqtisodiy faoliyat yuritilayotganini bildiradi. "Olmaliq" AGMK uchun ushbu ko'rsatkich barqaror holda saqlangan, bu esa korxonaning resurslardan oqilona foydalanayotganini anglatadi (2-rasm).

2019–2023-yillar davomida "Farg'ona NQIZ" MChJ, "O'zkiyosanoat" AJ va "Uzmetkombinat" AO korxonalarining S_umumiy ko'rsatkichlari mos ravishda 0.8783, 0.8883 va 0.8747 ni tashkil etdi. Bu ko'rsatkichlar iqtisodiy, atrof-muhit va ijtimoiy zararlarining umumiy faoliyat hajmiga nisbatan baholanadi. S_umumiy qiymati qanchalik katta bo'lsa, korxonada faoliyati shunchalik samarali va barqaror hisoblanadi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, barcha uch korxonada mazkur ko'rsatkich barqaror saqlanib, resurslardan oqilona foydalanilayotganini bildiradi.

Dissertatsiya ishining "Yashil iqtisodiyotning shakllanishi sharoitida sanoat korxonalarining ekologik rivojlanish istiqbollari" deb nomlangan uchinchi bobida sanoat korxonalarining ekologik-iqtisodiy faoliyatini qo'llab-quvvatlashning quyi tizimini rivojlantirish ahamiyati, yashil iqtisodiyga yo'naltirilgan sanoat korxonalarini iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmini takomillashtirish, zamonaviy texnologiyalar asosida sanoat korxonalarining ekologik-iqtisodiy samaradorligini oshirish istiqbollari yoritilgan.

O'zbekistonning iqtisodiyoti so'nggi yillarda jadal o'sishga erishgan bo'lsada, sanoatning ekologik va iqtisodiy jihatlari hamon dolzarb masalalar sifatida qolmoqda. O'zbekiston Prezidenti tomonidan qabul qilingan farmonlar va qarorlar, ayniqsa, sanoatning ekologik xavfsizligini ta'minlash, resurslardan samarali foydalanish va iqtisodiy barqarorlikni saqlash borasidagi ishlanmalar sanoat korxonalarining faoliyatini qo'llab-quvvatlashning muhim qismiga aylangan.

²⁰ Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi

Отформатировано: Отступ: Слева: 0 см, междустрочный, множитель 0,95 ин

Отформатировано: междустрочный, множитель 0,95 ин

Отформатировано: Отступ: Первая строка: 0 см, междустрочный, множитель 0,95 ин

Отформатировано: Шрифт: 8 пт

Отформатировано: междустрочный, множитель 0,95 ин

Отформатировано: узбекский (кириллица)

Отформатировано: Шрифт: Times New Roman

Отформатировано: Шрифт: Times New Roman

Отформатировано: Шрифт: Times New Roman, 7 пт

“O‘zbekiston – 2030 strategiyasi”²¹da mamlakatning barcha sohalarini barqaror rivojlantirish, yashil iqtisodiyot va ekologik xavfsizlikni ta’minlash masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Aynan shu strategiya asosida, sanoat korxonalarining ekologik-iqtisodiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlashning quyi tizimi yaratish zarurati yuzaga kelgan. Ushbu tizimda asosiy e’tibor sanoatning ekologik barqarorligini ta’minlash, resurslardan samarali foydalanish va chiqindilarni qayta ishlashga qaratilgan. Buning natijasida, sanoat korxonalarini ekologik talablarga mos keladigan va iqtisodiy jihatdan samarali faoliyat ko‘rsatishga erishadilar.

Rivojlangan mamlakatlardan tajribasidan ma’lumki sanoat korxonalarining yashil iqtisodiyotga transferini amalga oshirish jarayonida davlatning moliyaviy qo‘llab-quvvatlashi hamda rag‘batlantirish mexanizmlarining ishlab chiqilishi muhim omillardan birib bo‘lib xizmat qiladi. Davlat tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlash atrof-muhitga zarar yetishini oldini olishni maqsad qilgan subyektlariga taqdim etiladigan subsidiyalar, imtiyozli kreditlar, yashil loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan yashil investitsiyalar ko‘rinishida bo‘lishi mumkin (3-rasm).



3-rasm. “Yashil” iqtisodiyotga yo‘naltirilgan sanoat korxonalarining ekologik-iqtisodiy faoliyatini davlat tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlash modeli²²

Yashil iqtisodiyot sohasida muvaffaqiyatga erishish uchun xavflarning bir qismini davlat o‘z zimmasiga olishi mumkin. Umuman olganda, tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha mavjud vaziyatni hisobga olgan holda, ekologik ya’ni “yashil” iqtisodiyotga yo‘naltirilgan sanoat korxonalarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha bir qator chora-tadbirlarni belgilash mumkin. Agar ekologik faoliyatning iqtisodiy mexanizmi davlat yoki ekologik tadbirkorlarning manfaatlarini aks ettiruvchi tomonlardan faqat biriga yo‘naltirilgan bo‘lsa, potensial iste’molchilarga ekologik mahsulot xarajatlarini faqat qo‘shimcha xarajatlar sifatida qabul qiladi.

Imtiyozli kreditlash va subsidiyalash rejimini nafaqat “Atrof-muhitni samarali himoya qiluvchi korxonalar”ga, balki bunday muhofazani ta’minlovchi faoliyatni ham moliyalashtirishga va birinchi navbatda tegishli ekologik mahsulotlarni sotib olishga (ya’ni, oqibatlar emas, balki imtiyozlar bilan qoplash, qancha sabablar ularni keltirib chiqaradi) qaratilishi kerak (4-rasm).

²¹ <https://lex.uz/docs/-6600413> - O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida Farmoni

²² Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Код поля изменен

Отформатировано: Шрифт: Times New Roman

Отформатировано: Шрифт: Times New Roman

Отформатировано: Шрифт: 7 пт

Отформатировано: По левому краю



4-rasm. Sanoat korxonalari faoliyatini yashil iqtisodiyotga yo'naltirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi²³

Yashil iqtisodiyot ekologik barqarorlik, ijtimoiy adolat va iqtisodiy o'sishni uyg'unlashtirgan tamoyillar tizimidir. BMTning Atrof-muhit dasturi (UNEP) bu modelni "kam uglerodli, resurs tejovchi va inklyuziv" deb ta'riflaydi²⁴. Sanoat korxonalarining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmida ekologik sug'urtani joriy qilish yashil iqtisodiyotga o'tish imkoniyatini jadallashtiradi. Ekologik xavflarni kamaytirish va ularning oqibatlarini moliyaviy jihatdan qoplash uchun muhim vosita hisoblanadi. Xitoyda ekologik sug'urta tizimi ekologik halokatlar xavfiga ega sanoat tarmoqlari uchun majburiy etib joriy etilgan.

Bunday takliflarni amalga oshirish ekologik mahsulotlar iste'molchisi bo'lgan korxonalarining cheklangan moliyaviy imkoniyatlariga mos keladi va ularni ishlab chiqaruvchilar uchun alohida imtiyozlar talab qilmaydi. Qo'shimcha rag'batlantirish choralari joriy etish to'g'risidagi qaror O'zbekiston Respublikasining ta'ris subyektlari va mahalliy hokimiyat organlarining vakolatiga kirishi mumkin. Yashil iqtisodiyot va ekologik tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida moliya-xo'jalik mexanizmini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari keltirilgan (6-jadval).

6-jadvalda tabiiy resurslardan samarali foydalanish hamda atrof-muhit muhofazasini ta'minlash maqsadida qonunchilik, moliyalashtirish, solliq siyosati, tabiiy resurslarni tartibga solish va ekologik sug'urta tizimlari kabi muhim yo'nalishlar chuqur tahlil qilingan.

Birinchidan, ekologik qonunchilikni takomillashtirish va qonunlarning qat'iy ijrosini etish ta'minlash zarurati ta'kidlangan bo'lib, bu yo'nalishda moliyaviy rag'batlantirish mexanizmlarini joriy etish va nazorat tizimlarini mustahkamlash ehtiyoji mavjudligi aniqlangan. Qonunlarning samarali ijrosi yashil iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi uchun asosiy shartlardan biri hisoblanadi.

Ikkinchidan, ekologik faoliyatni moliyalashtirishda davlat va xususiy sektorning hamkorligini oshirish muhimligi ko'rsatildi. Aholi va korxonalar uchun subsidiyalar, kreditlar va boshqa moliyaviy vositalar joriy etilganiga qaramay, xususiy investitsiyalarning yetishmasligi sektorda rivojlanishni sekinlashtirmoqda. Shu sababli, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish va

²³ Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi

²⁴ https://sustainabledevelopment.un.org/content/documents/126GER_synthesis_en.pdf

Отформатировано: Шрифт: 7 пт

Отформатировано: Отступ: Первая строка: 1 см, междустрочный, множитель 0,95 ин

Отформатировано: междустрочный, множитель 0,95 ин

Код поля изменен

Отформатировано: Шрифт: Times New Roman

Отформатировано: Шрифт: Times New Roman

Отформатировано: Шрифт: Times New Roman, 7 пт

moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish bo'yicha strategiyalar ishlab chiqilishi lozim.

Uchinchidan, soliq siyosatini ekologik omillar bilan uyg'unlashtirish orqali ekologik muammolarni hal qilish mexanizmlari taklif qilingan. Maxsus ekologik soliqlarni joriy etish, imtiyozlar tizimini shakllantirish va soliq siyosatining iqtisodiy ta'sirini modellashtirish orqali ushbu mexanizmlar samaradorligi oshirilishi mumkin.

To'rtinchidan, tabiiy resurslardan foydalanishni tartibga solish uchun atrof-muhit salohiyatiga asoslangan ~~uchun~~ to'lov tizimlari va monitoring metodologiyalari muhimdir. Ammo, amaliyotda monitoring tizimining zaifligi va jarimalarning samaradorligini baholash bo'yicha kamchiliklar mavjudligi aniqlangan. Shuning uchun monitoringni raqamlashtirish va jarimalarning iqtisodiy ta'sirini o'rganish zarur.

Beshinchidan, ekologik sug'urta tizimini rivojlantirish sohasida profilaktik chora-tadbirlarni moliyalashtirish va sug'urta bozori infratuzilmasini yaxshilash muhim ahamiyat kasb etadi. Sug'urta tizimining iqtisodiy samaradorligini baholash hamda xalqaro tajribalarni milliy sharoitlarga moslashtirish tadqiqotda ajralib turadi.

Umuman olganda, moliyaviy resurslarning yetishmasligi, qonunchilikni ijro etishdagi kamchiliklar va monitoring mexanizmlarining zaifligi ishlab chiqarish yashil iqtisodiyotini rivojlantirish yo'lida asosiy to'siqlardir. Shu sababli, dissertatsiya doirasida ushbu yo'nalishlarda empirik tadqiqotlar olib borish, moliyaviy modellashtirish va siyosat samaradorligini baholash metodlarini ishlab chiqish tavsiya etiladi. Bu esa ekologik barqarorlik va iqtisodiy o'sishni uyg'unlashtirishga xizmat qiluvchi samarali moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlarni yaratishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

6-jadval

Отформатировано: слева: 2,2 см, справа: 2,3 см

Ishlab chiqarishni yashil iqtisodiyotga yo'naltirish va ekologik tadbirkorlikni rivojlantirishning moliyaviy-iqtisodiy mexanizmining asosiy elementlari²⁵

Maqsad	Tarkib	Ularni amalga oshirishning kamchiliklari
1. Ekologiya qonunchiligi		
Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilishni ta'minlash	Qonunlarga rioya etilishini boshqarish va nazorat qilish. Bozor munosabatlarini joriy etish: tabiiy resurslarga bo'lgan mulkiy huquqlar, chiqindilar va chiqindilarni sotish huquqi instituti, narxlarni takomillashtirish, ekologik tadbirkorlikni rivojlantirish va boshqalar.	Ekologik huquq manbalarining umumiy ro'yxatida qonun osti hujjatlari rolining ustunligi. Atrof-muhitni boshqarish tizimining parchalanishi. Ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatidagi huquq va majburiyatlarni aniqlashtirish
2. Ekologik faoliyatni moliyalashtirish		
Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyatining moddiy bazasini yaratish	Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi davlat siyosatini amalga oshiruvchi davlat organlari faoliyatini moliyalashtirish. Ushbu maqsadlar uchun investitsiyalar ²⁵ ajratish, kreditlar, avanslar va ssudalar berish. Atrof-muhitni muhofaza qilish uchun asosiy vositalarning tezlashtirilgan eskirishi	Ekologik faoliyatni moliyalashtirishning yetarli emasligi (ehtiyojning 25-30%)
3. Soliq siyosati		
Atrof-muhitni oqilona boshqarishni rivojlantirishni rag'batlantirish	Soliqqa tortish tizimida ekologik omilni hisobga olish (soliq stavkalarini, maxsus ekologik soliqlarni farqlashdan foydalangan holda)	Ekologik yo'naltirilgan soliq tizimi mavjud emas. Ekologik ta'sir ko'rsatadigan faoliyat uchun soliq imtiyozlari berilmaydi
4. Tabiiy resurslardan pullik foydalanish		

Отформатированная таблица

Отформатировано: Шрифт: Times New Roman

Отформатировано: Шрифт: Times New Roman

Отформатировано: Шрифт: Times New Roman, 7 пт


²⁵ Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi

4.1. Atrof-muhitga salbiy ta'sir uchun to'lovlar		
Atrof-muhit muhofazasiga salbiy ta'sir qilish uchun iqtisodiy javobgarlikni shakllantirish	Atrof-muhitga salbiy ta'sir uchun to'lovlar tizimini takomillashtirish	Joriy to'lov o'z vazifalarini yomon bajarishda (past stavkalar, uni byudjet daromadlarining qo'shimcha manbai sifatida ko'rib chiqishga urinishlar va boshqalar).
4.2. Jarimalar va zararlar		
Tabiiy resurslardan foydalanuvchilarning ekologik huquqbuzarliklar uchun iqtisodiy javobgarligini ta'minlash	Atrof-muhitga etkazilgan zararni baholash metodologiyasini takomillashtirish	Jarima stavkalari past; atrof-muhitga etkazilgan zararni ishonchli baholash metodologiyasi murakkab yoki mavjud emas
4.3. Omonatni qaytarish tizimi		
Chiqindilar hajmini kamaytirish va ularni utilitatsiya qilishda mablag'ni tejash	Xaridor tovarning qo'shimcha narxini to'laydi, bu qaytarib berilgandan keyin qaytariladi.	Oldinga qo'yilgan takliflar vakillik va ijro hokimiyati organlarida qo'llab-quvvatlanmadi
5. Ekologik sug'urta		
Atrof-muhitga etkazilgan zararni qoplash va atrof-muhitni muhofaza qilish tadbirlari uchun mablag'larni to'plash	Mablag'larni to'plash va sug'urta hodisalari sodir bo'lganda ularni tezda qayta taqsimlash. Profilaktik tadbirlarni moliyalashtirish	Hozirgi vaqtda zarur qonunchilik va me'yoriy-huquqiy bazaning yo'qligi sababli amalda ishlab chiqilmagan

~~Umuman olganda, moliyaviy resurslarning yetishmasligi, qonunchilikni ijro etishdagi kamchiliklar va monitoring mexanizmlarining zaifligi ishlab chiqarish yashil iqtisodiyotini rivojlantirish yo'lidagi asosiy to'siqlardir. Shu sababli, dissertatsiya doirasida ushbu yo'nalishlarda empirik tadqiqotlar olib borish, moliyaviy modellashtirish va siyosat samaradorligini baholash metodlarini ishlab chiqish tavsiya etiladi. Bu esa ekologik barqarorlik va iqtisodiy o'sishni uyg'unlashtirishga xizmat qiluvchi samarali moliyaviy iqtisodiy mexanizmlarni yaratishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.~~

Ekologik tadbirkorlarning o'zlari ekvivalent rag'batlantirish choralari bilan qoplanishi kerak, bu esa barcha ekologik faoliyat subyektlarining iqtisodiy manfaatlarini muvofiqlashtirishning zaruriy shartidir. Jonson va Libeker¹ moliyaviy qo'llab-quvvatlash "yashil" tadbirkorlikni rivojlantirishning dastlabki bosqichida hal qiluvchi rol o'ynashini ta'kidlaydilar. Birinchidan, moliya tizimi kapitalni shakllantirish mexanizmiga asoslanadi va siyosatga rahbarlik qilishi, mahsulot innovatsiyasi, texnologik innovatsiyalar va xizmatlarni yangilash kabi ko'p o'lchovli innovatsiyalar hamda transformatsiyalar orqali xususiy kapitalni jadallik bilan to'playdi (5-rasm).

Отформатировано: интервал после: 6 пт



¹ Johnson D., Lybecker K.M. Challenges to Technology Transfer: A Literature Review of the Constrains on Environmental Technology Dissemination. Social Science Electronic Publishing, 2009; 7: 241-260.

Отформатировано: Шрифт: Times New Roman

Отформатировано: Шрифт: Times New Roman

Отформатировано: Шрифт: Times New Roman, 7 пт

5-rasm. Sanoat korxonalarini yashil iqtisodiyotga transformatsiyasini moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmi²

Shuningdek, jamg'armalarni investitsiyaga samarali aylantiradi va shu bilan kapital pulining aylanishi va o'sishini samarali amalga oshiradi. "Talabni kuzatish" fikrlash rejimidan boshlab, moliyaviy tizimning uzluksiz va yetarli darajada moliyaviy qo'llab-quvvatlanishi korxonalariga moliyaviy cheklovlarni hal qilishda, mablag'larning oqilona taqsimlanishi hamda normal aylanishiga erishishda yordam beradi. Dastlab korxonalarining iqtisodiy mahsulotini keng qamrovda yaxshilashga yordam beradi. Shu bilan birga, keng qamrovda kapitalni qo'llab-quvvatlash kapital samaradorligini oshirishga olib kelishi mumkin.

Atrof-muhitni muhofaza qilish qoidalarini va korporativ ifloslanishning tashqi ta'sirining endogen mexanizmlarini takomillashtirish asosida sanoat korxonalarini yashil texnologiya tadqiqotlari va innovatsiyalarida qo'llab-quvvatlash, ularning yashil ishlab chiqarishini yanada yaxshilash va mintaqaviy iqtisodiyotni yashil rivojlanish maqsadlariga erishish hisoblanadi³.

Atrof-muhitni muhofaza qilish maqsadida faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalarining iqtisodiy mexanizmini shakllantirish masalasini ko'rib chiqayotganda shuni hisobga olish kerakki, u umuman tadbirkorlikning ajralmas qismi hisoblanadi, shuning uchun bu mexanizm, birinchi navbatda, bozor iqtisodiyotining umumiy tamoyillari asosida barqaror foydani ta'minlash, to'yingan va barqaror bozorga ega bo'lish. Tadbirkorlikning bu turi iqtisodiy samaradorlik darajasidagina rivojlanishi mumkin. Bu bir qator muammolarni, xususan, narx-navo muammosini to'g'ri hal qilishga bog'liq.

Moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmi asosida ko'rinib turibdiki, yashil transformatsiyaga erishish uchun moliyaviy yordam tizimlari markaziy o'rin egallaydi. Bu mexanizm asosiy komponentlar orqali amalga oshiriladi:

1. Moliyaviy yordam va kapital shakllanishi: Siyosat, mahsulotlar, texnologiyalar va xizmatlar yordamida moliyaviy vositalar shakllantiriladi, shuningdek, xususiy jamg'armalar va kapitallashtirilgan mahsulotlar orqali moliyaviy resurslar yaratilib, ular innovatsion loyihalarga yo'naltiriladi.

2. Resurslarni taqsimlash mexanizmi bu — resurslar siyosiy va bozor mexanizmlari (natijadorlik, texnik tuzilma va iste'mol tarkibi) hamda yashil texnologiyalar innovatsion mexanizmlari (yashil sanoat, texnologiya va iste'mol) orqali taqsimlanadi. Bu, o'z navbatida, yashil moliyani rivojlantirishga xizmat qiladi.

3. Yashil moliya bu bevosita yashil kreditlar, obligatsiyalar, sug'urta va trestlar orqali moliyalashtirish mexanizmi mintaqaviy darajada yashil iqtisodiy transformatsiyani ta'minlaydi.

4. Institutsional va ijtimoiy omillarga esa yashil moliyalashtiruvchi tashkilotlar va reguliyator islohotlar institutsional asos sifatida ko'rsatiladi. Ijtimoiy

² Liu Lei, Lazareva E. I. Financial incentive instruments of regional economy' «green» transformation. *State and Municipal Management. Scholar Notes*. 2024;(3):78–85. <https://doi.org/10.22394/2079-1690-2024-1-3-78-85>. EDN HFDLQK. Shu asnosida muallif ishlanmasi

³ Ekanayake E.M., Thaver R. The nexus between financial development and economic growth: panel data evidence from developing countries. *Journal of Risk and Financial Management*. 2021; 14 (10): 480-489.

natijalar sifatida esa yangi ish o'rinlari yaratiladi, bu esa transformatsiyaning ijtimoiy barqarorligini ta'minlaydi.

Yashil iqtisodiyotga o'tish uchun kompleks yondashuv zarur bo'lib, bu yondashuvda moliyaviy yordam, kapital shakllanishi, resurslarni samarali taqsimlash, yashil innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy-iqtisodiy omillarni uyg'unlashtirish muhim ahamiyatga ega. Mexanizm yashil moliya vositalari orqali iqtisodiy va ekologik barqarorlikka erishish mintaqaviy darajada real bo'lishi mumkin.

Shuningdek, atrof-muhitni muhofaza qilish maqsadida o'z faoliyatini amalga oshiradigan kichik tadbirkorlikda narxlarni shakllantirish muammosini hisobga olgan holda, umumiy qonuniyatlardan tashqari, ma'lum bir tovar aylanayotgan (pul ekvivalentiga almashtirilgan) ma'lum bir bozorga tegishli bo'lgan o'ziga xos narx omillarini hisobga olish kerak.

Yashil iqtisodiyot rivojlanishining ishlab chiqarish resurslariga ta'sirini baholashning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlari yuzasidan o'tkazilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-amaliy xulosa va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Sanoat ekologiyasi amaliyotlarini amalga oshirishdagi to'siqlarni bartaraf etish barqaror sanoat rivojlanishiga erishish uchun juda muhimdir. Hukumat, sanoat va jamoatchilik o'rtasidagi hamkorlik sanoat amaliyotlarining barqarorligini qabul qilishni rag'batlantirish va sanoat faoliyatlarining ekologik ta'sirini kamaytirish uchun zarur. Shunday qilib, biz kelajak avlodlariga tabiiy resurslarga va ularning farovonligi va rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydigan sog'lom muhitga ega bo'lish imkoniyatini ta'minlay olishimiz mumkin.

2. Texnologik va siyosiy yechimlar juda muhim bo'lsa-da, ijtimoiy va xulq-atvor o'zgarishlari ham zarur. Bu iqlim o'zgarishi haqida xabardorlikni oshirish, barqaror xulq-atvorni rag'batlantirish va ushbu xulq-atvorlarni qo'llab-quvvatlaydigan tizim va tuzilmalarni yaratishni o'z ichiga oladi. Iqlim o'zgarishi murakkab masala bo'lib, keng ko'lamli ta'sirlarga ega. Unga javob berish uchun ilmiy tushuncha, siyosat, texnologiya va jamiyat harakati birlashgan yondashuvni talab qiladi. Bugun qabul qilgan qarorlarimiz kelajakda sayyoramizning holatini shakllantiradi.

3. Tadqiqot natijasida "Yashil tadbirkor" maqomi va uni belgilovchi indikatorlar tizimi taklif qilindi va amaliyotga joriy etildi. Bu maqomni olish uchun ekologik mahsulot, chiqindi darajasi, qayta ishlash ulushi, energiya samaradorligi kabi mezonlar aniq belgilanishi zarurligi ifodalaniildi hamda mezonlar ishlab chiqildi.

4. Jamiyat tegishli ravishda qoldiq va oldini olingan zarar miqdorida xarajatlar va foyda keltiradi. Ushbu xarajatlar natijasida kelib chiqadigan foyda bilan atrof-muhitni muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlarni tahlil qilish eng oqilona ekologik yechimlarni tanlashda ham, umuman bozor iqtisodiyotining samarali ishlashini ta'minlashda ham muhim rol o'ynashi aniqlandi. Tegishli xarajatlar va foyda nisbati tabiatni muhofaza qilish tadbirlarining iqtisodiy samaradorligini aniqlash uchun asosdir. Xususiyl xarajatlar-imtiyozlar to'g'ridan-to'g'ri xo'jalik yurituvchi subyektlar ___ kichik korxonalarda belgilanadi va

korxonalarining ekologik faoliyatini rag'batlantirishga qaratilgan, jamoat xarajatlari esa hududlarning faoliyati bilan bog'liqdir.

5. Sanoat korxonalarining ekologik va iqtisodiy samaradorligini baholash zamonaviy iqtisodiyotda muhim ahamiyatga ega bo'lib, barqaror rivojlanishning ajralmas qismidir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, atrof-muhitni muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirish korxonalarda nafaqat ekologik xavfsizlikni ta'minlaydi, balki iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlikni oshirishga ham xizmat qiladi.

6. Tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan baholash metodologiyasi sanoat korxonalarini faoliyatini iqtisodiy (F_iqt), ekologik (F_atrof) va ijtimoiy (F_ijt) samaralarini kompleks tarzda tahlil qilish imkonini beradi. Misol sifatida keltirilgan "Navoiyazot" AJ, "Olmaliq" AGMK, "Farg'ona NQIZ" MChJ, "O'zkiyosanoat" AJ va "Uzmetkombinat" AO kabi korxonalarda 2019–2023 yillarda S_umumiy ko'rsatkichlarining barqaror o'sib borayotgani, ularning "yashil siyosat"ga yo'naltirilganini tasdiqlaydi.

7. Tadqiqotda ekologik ta'sirni miqdoriy baholash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni kamaytirish, ekologik sertifikatlash va ekologik boshqaruv tizimlarining joriy etilishi muhimligi asoslab berilgan. Bunday yondashuvlar sanoat korxonalarining ekologik xavfsizligini oshirish, xalqaro standartlarga moslashish va investitsion jozibadorligini kuchaytirishga olib keladi.

8. Sanoat korxonalarining ekologik-iqtisodiy faoliyatini takomillashtirish uchun davlat tomonidan maqsadli dasturlar ishlab chiqilishi, qonunchilik bazasining mustahkamlanishi va soliq imtiyozlari mexanizmlarining yanada mukammal qo'llanilishi muhim ahamiyatga ega. Shu orqali O'zbekistonda ekologik barqaror va iqtisodiy samarali sanoat tizimini shakllantirish imkoniyati yaratiladi.

9. Sanoat korxonalarining ekologik-iqtisodiy faoliyatini rivojlantirish bugungi kunda O'zbekistonning barqaror iqtisodiy taraqqiyoti va ekologik xavfsizligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sanoat korxonalarining rivojlanishida asosiy muammolar — soliqlarning yuqoriligi, kreditlash tizimidagi kamchiliklar, ekologik normativ hujjatlarning yetarlicha ishlab chiqilmagani va ekologik tadbirkorlik uchun rag'batlantiruvchi mexanizmlarning zaifligi bilan bog'liq.

10. Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, sanoat korxonalarini qo'llab-quvvatlashning quyi tizimi, ayniqsa, kichik va o'rta korxonalar uchun maxsus soliq imtiyozlari, soddalashtirilgan hisobot shakllari va ekologik mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratilgan moliyaviy rag'batlantirish choralarining mavjudligi iqtisodiy va ekologik samaradorlikka erishishning muhim vositasi hisoblanadi.

11. O'zbekiston sanoat korxonalarining yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida rivojlanishi iqtisodiy samaradorlik va ekologik barqarorlikni ta'minlashning muhim omillaridan biridir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sanoat korxonalarini ekologik faoliyatining institutsional asoslari va iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlari yetarlicha rivojlanmagan. Ekologik tadbirkorlik subyektlarini rivojlantirishda davlat tomonidan soliq imtiyozlari, imtiyozli kreditlar, subsidiyalar, ekologik buyurtmalar tizimi va moliyaviy rag'batlantirish mexanizmlarini keng qo'llash zarur. Bu esa sanoat korxonalarini ekologik toza texnologiyalarni joriy etishga va atrof-muhitni muhofaza qilishga yo'naltirilgan faoliyatni kengaytirishga

undaydi. Xorijiy davlatlar tajribasi tahlilidan ma'lum bo'lishicha, ekologik mahsulotlar ishlab chiqarish va ekologik xizmatlar ko'rsatishni qo'llab-quvvatlashda imtiyozli soliq stavkalari, soddalashtirilgan hisobot tizimi va davlat buyurtmalari muhim o'rin tutadi.

|

3 |

- Отформатировано: Шрифт: Times New Roman
- Отформатировано: Шрифт: Times New Roman
- Отформатировано: По правому краю

НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/29.12.2022.I.157.01
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
МЕЖДУНАРОДНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ НОРДИКА
МЕЖДУНАРОДНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ НОРДИКА

УМАРОВ ЭЛШОДГУЛОМОВИЧ

ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ РАЗВИТИЯ ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКИ НА
ПРОИЗВОДСТВЕННЫЕ РЕСУРСЫ

08.00.03 – Экономика промышленности

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам

Ташкент– 2025

Отформатировано: Шрифт: Times New Roman

Отформатировано: Шрифт: Times New Roman

Отформатировано: Шрифт: Times New Roman, 7 пт

Тема диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией за № В2023.3.PhD/Iqt3191.

Диссертация выполнена в Международном университете Нордик.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-сайте Научного совета (www.nordicuniversity.org) и информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyo.net).

Научный руководитель:	Мустафакулов Шерзод Игамбердиевич доктор экономических наук, профессор
Официальные оппоненты:	Раджабов Назиржон Разакович доктор экономических наук (PhD), доцент Исаков Мусохан Юсупджанович доктор экономических наук, доцент
Ведущая организация:	Ташкентский государственный аграрный университет

Отформатировано: Отступ: Первая строка: 0,8 см

Защита диссертации состоится «__» _____ 2025 года в ____ на заседании Научного совета PhD. 03/29.12.2022.I.157.01 по присуждению ученой степени при Международном университете Нордик. Адрес: 100 143, г.Ташкент, ул. Себзор, дом 22А, корпус 2, 1 этаж. Тел.: (55) 508-44-00, e-mail: info@nordicuniversity.org.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Международного университета Нордик (зарегистрировано под № _____). Адрес: 100143, г.Ташкент, ул. Себзор, дом 22А, корпус 2, 1 этаж. Тел.: (55) 508-44-00.

Автореферат диссертации разослан «__» _____ 2025 года.

(протокол реестра № ____ от «__» _____ 2025 года).

Отформатировано: По левому краю, Отступ: Первая строка: 0 см

А.Р. Джураев
Председатель научного совета по присуждению ученых степеней д.э.н. (DSc)

М.К. Абдуллаев
Ученый секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, PhD, профессор

Б.Т. Салимов
Председатель Научного семинара при научном совете по

Отформатировано: Шрифт: Times New Roman

Отформатировано: Шрифт: Times New Roman

Отформатировано: По правому краю

присуждению ученых степеней,
д.э.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации (PhD) доктора философии)

Актуальность и востребованность темы диссертации.

Стремительный рост мирового производственного процесса приводит к увеличению потребления ресурсов, в частности, спроса на энергоснабжение, что, как следствие, представляет серьезную угрозу для окружающей среды. По оценкам, «наибольшая доля глобальных выбросов парниковых газов, 30% от общего объема выбросов приходится на промышленные секторы, 28% – на производство электроэнергии, 19% – на сельское хозяйство, землепользование и свалки, 16% – на транспортный сектор, 7% – на здания, а на промышленность и производство электроэнергии приходится около 60% мировых выбросов парниковых газов».¹ Это показывает, что повышение энергоэффективности, переход на чистые технологии и внедрение экологически устойчивых решений являются актуальными задачами.

Отформатировано: русский

К числу приоритетных направлений научных исследований, проводимых в этой связи, относятся: наблюдаемые в мире тенденции, этапы развития социально-экономических механизмов на промышленных предприятиях, методические подходы к оценке эффективности эколого-экономических механизмов, зарубежный опыт повышения инновационного потенциала промышленных предприятий и возможности его использования в экономике страны, научно-техническое, финансовое, кадровое, информационное, материально-техническое состояние промышленных предприятий и тенденции его развития, совершенствование методов оценки социально-экономического потенциала промышленных предприятий, концептуальные основы развития зеленой экономики промышленных предприятий.

Для устранения экологических проблем и устойчивого развития промышленных предприятий Узбекистана особое внимание уделяется вопросам повышения зеленого экономического потенциала производств, что является важным фактором обеспечения их конкурентоспособности. Поэтому необходимо обеспечить планомерную реализацию задач, обозначенных в стратегии «Узбекистан – 2030» и решениях палат Олий Мажлиса, а также обеспечить реализацию конвенции Хэдли ООН об изменении климата,² Киотский протокол³ и Парижское соглашение⁴, которое «предусматривает реализацию гармоничной «зеленой трансформации» секторов и отраслей в

¹ <https://rhg.com/research/global-greenhouse-gas-emissions-1990-2022-and-preliminary-2023-estimates/>.

² Конвенция Хэдли – конвенция об изменении климата. Нью-Йорк, 9 мая 1992 г. (Вступила в силу для Республики Узбекистан 21 марта 1994 г.). <https://lex.uz/acts/2598545>.

³ Киотский протокол – важный документ в борьбе с изменением климата, первое международное соглашение, обязывающее развитые страны сократить выбросы парниковых газов. https://unfccc.int/kyoto_protocol?utm_source.

⁴ Парижское соглашение – Глобальное климатическое соглашение, принятое 12 декабря 2015 года в рамках конвенции Хэдли Организации Объединенных Наций об изменении климата (РКХ ООН), которое призывает все страны мира сократить выбросы парниковых газов и адаптироваться к изменению климата. <https://unfccc.int/news/the-explainer-the-paris-agreement>.

Код поля изменен

Отформатировано: русский

Отформатировано: русский

Отформатировано: Шрифт: Times New Roman

Отформатировано: Шрифт: Times New Roman

Отформатировано: Шрифт: Times New Roman, 7 пт

целях выполнения обязательств страны перед мировым сообществом»⁵. Стоит отметить, что только за 2023 год выбросы в атмосферу составили 2138,3 тыс. тонн, из них на автотранспорт пришлось 1279,9 тыс. тонн или 59,9%, на промышленные предприятия – 858,4 тыс. тонн или 40,1%. С 2020 года в регионах введено в эксплуатацию около 22 тыс. новых промышленных предприятий, построено более 250 тыс. новых домов⁶. Естественно, что столь быстрое развитие промышленности вызывает серьезные экологические проблемы. Уровень загрязнения воздуха остается высоким, особенно в таких районах, как Ташкент, Алмалык, Нурафшон, Ахангарон, Ангрен, Бекабад и Кувасой. Это требует ускорения работы в этой области и разработки конкретных решений на основе исследований.

